

MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

№11

2025
noyabr



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari
08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

OPEN ACCESS

ULRICHSWEB[™]
GLOBAL SERIALS DIRECTORY

Academic
Resource
Index
ResearchBib

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

CYBERLENINKA

OpenAIRE

ROAD

INDEX COPERNICUS
INTERNATIONAL

BASE

Crossref

НАУЧНАЯ ЭЛЕКТРОННАЯ
БИБЛИОТЕКА
LIBRARY.RU



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ТАШКЕНТСКИЙ ФИЛИАЛ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 647 sahifa.
2025-yil, noyabr

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Botirali Roxataliyevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, professor

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK

Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

JAHONDA KREATIV IQTISODIYOTNING RIVOJLANISHINING UMUMIY GLOBAL TENDENSIYALARI.....	12
Ismailov Azizbek Ruzimaxmatovich	
CHORVACHILIK MAHSULOTLARI ISHLAB CHIQRISH VA EKSPORT SALOHİYATINI OSHIRISHDA BOZOR INFRATUZILMASINI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY OMILLARI	22
Soxadaliyev Abdurashid Mamadaliyevich	
XORIJIY INVESTITSİYALAR VA IQTISODIY O'SISH O'RTASIDAGI O'ZARO TA'SIR	30
Madraximova Irodaxon Sherzodbek qizi	
O'ZBEKISTON SHAROITIDA XIZMATLAR EKSPORTINING IQTISODIY O'SISHGA TA'SIRI	35
Sultonov Shodiyor Abduxalilovich, Karshiyeva Charos Mamasoliyevna	
QASHQADARYO VILOYATIDA OLIY TA'LIM VA MEHNAT BOZORI INTEGRATSIYASI ASOSIDA YUQORI MALAKALI KADRLAR TAYYORLASHNING HOZIRGI HOLATI.....	41
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich	
SOLIQ MA'MURCHILIGIDA XALQARO TAJRIBA ASOSIDA SAMARADORLIKNI OSHIRISH.....	48
Xodjimatrov Xamidullo Mamirjonovich	
TIJORAT BANKLARI KREDIT PORTFELNI SAMARALI BOSHQARISH: MUAMMO VA TAKLIFLAR.....	53
Yusupov Shaxzod Maxmatmurodovich	
KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING RIVOJLANISHIGA TA'SIR ETUVCHI ASOSIY OMILLAR VA IQTISODI SAMARADORLIGI TAHLILI.....	59
Axatova Shahnoza	
SANOATNING "DRAYVER" SOHALARINI RIVOJLANTIRISH	63
Mamurjonova Ruxshonabegim Farxodovna	
РОЛЬ КРЕАТИВНОЙ ИНДУСТРИИ В РЕГИОНАЛЬНОМ РАЗВИТИИ КАРАКАЛПАКСТАНА.....	69
Хошимова Камилла Навфал қизи	
РОЛЬ ЧЕЛОВЕЧЕСКОГО КАПИТАЛА В ПОВЫШЕНИИ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ОРГАНИЗАЦИЙ В УСЛОВИЯХ ГЛОБАЛИЗАЦИИ	79
Тожиева Шахноза Бобомуратовна, Расулова Дилфуза Валиевна	
АНАЛИЗ ФИНАНСОВОГО СОСТОЯНИЯ ПРЕДПРИЯТИЯ.....	86
Файзиёв Умуркул Шухратович	
TIKUV-TRIKOTAJ KORXONALARDA MARKETING FAOLIYATIDA ISTEMOLCHILARNI MOTIVATSIYALASH MASALALARI	97
Jalilov Jamshid G'anijonovich	
СТАНДАРТЫ КАЧЕСТВА КАК ФАКТОР ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ.....	103
Ўролова Севара Бехзод қизи	
BANKLARDA KAPITAL YETARLILIGI VA LIKVIDLIKNI AUDITORLIK BAHOLASH USULLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	109
Narziyev Hayotjon Azamatovich	
NATIJAVIYLIKKA YO'NALTIRILGAN BudgetLASHTIRISH ORQALI FISKAL SAMARADORLIKNI OSHIRISH MASALALARI.....	115
Allakuliyev Akmal Baltayevich	
AUDITORLIK XULOSALARIDA AUDITORLARNING PROFESSIONAL MULOHAZALARNING ASOSLILIGINI ANIQLASH AHAMIYATI	120
Parpiyev Jaxongir Ilxomjonovich	
YASHIL IQTISODIYOTDA YASHIL MOLIYALASHTIRISH: NAZARIY VA AMALIYOT UYG'UNLIGI.....	126
Xalikov S. X.	



TURISTIK KORXONALARDA BREND CAPITALINI BAHOLASH	131
Zufarov Akmal Gulamiddinovich	
AYOLLAR ISH BILAN BANDLIGINI OSHIRISHDA KASANACHILIKNING AHAMIYATI	141
Eshqobulova Charos O'roq qizi	
ПРАВОВОЕ РЕГУЛИРОВАНИЕ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН	148
Алимова Дилафруз	
O'ZBEKISTON UZUMCHILIK KORXONALARINING EKSPORT MARKETING STRATEGIYALARINI TAKOMILLASHTIRISHDA YASHIL INNOVATSIYALAR VA TEXNOLOGIYALARNING O'RNI	153
Usmonova Diyora Mahmud qizi	
RAQAMLI MOLIYAVIY XIZMATLAR TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA SOLIQ BOSHQARUVI SAMARADORLIGINI OSHIRISH ISTIQBOLLARI	161
Radjabov Umurzoq Ablakulovich	
ЦИФРОВАЯ ТРАНСФОРМАЦИЯ ЭНЕРГЕТИЧЕСКОГО СЕКТОРА РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН: РОЛЬ ИНФОРМАЦИОННО-КОММУНИКАЦИОННЫХ ТЕХНОЛОГИЙ В ПОВЫШЕНИИ ЭФФЕКТИВНОСТИ ЭНЕРГЕТИКИ	165
Аллаева Г.Ж.	
THE IMPORTANCE OF STRESS TESTING AND ITS IMPLEMENTATION IN COMMERCIAL BANKS OF THE REPUBLIC OF UZBEKISTAN	169
Mamatova Sevara	
MINTAQADA SANOAT KORXONALARI SALOHİYATI VA RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISHNING INNOVATSION KO'RSATKICHLARI	175
Nabiyev G'ulom Abdisalomovich	
IJTIMOİY SOHA INVESTISIYA LOYIHALARINI DAVLAT–XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA MOLIYALASHTIRISHDA RISKLARNI BOSHQARISHNING XORIY TAJRIBALARI	185
Ergashev Axmadjon Maxmudjon o'g'li	
YASHIL BANK MAHSULOTLARIDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ISTIQBOLLARI	189
Mahmudov Ulug'bek Davronovich	
KICHIK BIZNESDA XUSUSIY VA UMUMIY AXBOROT TIZIMLARI INTEGRATSIYASI	193
Navruz-zoda Layli Baxtiyorovna	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA TO'G'RIDAN-TO'G'RI XORIJIY INVESTITSİYALARNI JALB QILISH MEKANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	197
Mamatkulova Nadira Maxkamovna	
JAHON AMALIYOTIDA TASHABBUSLI BUDJETLASHTIRISHNING KONSEPTUAL YO'NALISHLARI	203
Xamidov Xabibullo Xikmatulla o'g'li	
РАЗВИТИЕ УПРАВЛЕНЧЕСКОГО УЧЁТА В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ МАЛОГО БИЗНЕСА КАК ФАКТОР ПЕРЕХОДА К “ЗЕЛЁНОЙ” ЭКОНОМИКЕ РЕСПУБЛИКИ УЗБЕКИСТАН	210
Бозорова Озода Рахимовна	
ТЕМИРБЕТОН КО'РРИКЛАРДАГИ BURDALANGIN BETONDAN OLINGAN CHAQIQ TOSHNI KOMPLEKS TADQIQOT QILISH	222
Salixanov Saidxon Salixanovich, Kenjayev Temurbek Olimjonovich	
KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIKDA YASHIRIN IQTISODIYOTNI ANIQLASH USULLARI VA SOF FOYDA KO'RSATKICHIDA AKS ETISH YO'LLARI	226
Mavlyanov Muzaffar Yusupovich	
MAMLAKATIMIZ BANKLARIDA FOIZ RISKILARI MUAMMOLARI VA ILMIY-TAHLILI	230
Isakov.J.Ya	
QISHLOQ XO'JALIGI MAHSULOTLARINI EKSPORTGA YO'NALTIRISHDA IQTISODIY BARQARORLIK TUSHUNCHASINING NAZARIY ASOSLARI VA BAHOLASH MEZONLARI	238
Faxriddinov Bahriddin	



TO'QIMACHILIK SANOATIDA SUN'IY VA KIMYOVIY TOLALARNING IQTISODIY AFZALLIKLARI	243
Raximov Furqat Jalolovich	
BUXORO VILOYATIDA CHARM-POYABZAL TARMOG'I RAQOBATBARDOSHLIGINI OSHIRISH STRATEGIYASI.....	249
Rahmonov Xurshid Xayriddinovich, Atoeva Mehriqo Ilhom qizi	
KORXONALARDA BUXGALTERIYA HISOBI VA UNI YURITISH TARTIBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	254
M.I.Murodova	
SOLIQ SIYOSATI ORQALI AHOLI DAROMADLARINI RAG'BATLANTIRISH MEXANIZMLARI.....	258
Uzoqov Suhrobjon Do'smat o'g'li	
INNOVATSION VA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA LOGISTIK XIZMATLAR KORXONALARINING IQTISODIY SAMARADORLIGI TAHLILI.....	264
Xalimov Javlonbek Shaxriyovich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASIDA SOLIQ TIZIMIDA RAQAMLASHTIRISHNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SOLIQLARNI UNDIRISHNING METODOLOGIK MUAMMOLARI	271
Muxammadov Nodir Karimovich	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARI FAOLIYATIDA EKSPORTBOP MAHSULOTLAR ISHLAB CHIQARISH JARAYONLARINI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI SAMARADORLIKNI OSHIRISH	277
Boymirzayev Zokirjon Mashrabboyevich	
IQTISODIYOT VA TA'LIM BOSHQARUVI: O'ZBEKISTONDA TA'LIM BRENDINGI UCHUN IQTISODIY JIHATLAR.....	282
Dilfuza Shokirova	
OLIY TA'LIM SOHASIDA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH.....	291
Raximjonova Shohsanam Baxodirovna	
O'ZBEKISTON BANKLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYANI INSON KAPITALI RIVOJI BILAN UYG'UNLASHTIRISH: INSTITUTSIONAL YONDASHUV.....	295
Xushvaqto'v Nodirbek Nomoz o'g'li	
SUN'IY INTELLEKT ASOSIDA MOLIYAVIY STRESS-TEST TIZIMINI YARATISH METODOLOGIYASI	299
Zaynutdinov Ismoil Samariddin o'g'li	
HOZIRGI SHAROITDA BANK FAOLIYATIDA RISKLARNI BOSHQARISH TIZIMINING INSTITUTSIONAL MEXANIZMLARI	303
Malikova Dilrabo Muminovna, Shakarova Kumush Faxriddin qizi	
ENSURING SECURITY IN THE DIGITAL WORLD: HOW THE INSURANCE INDUSTRY CAN COUNTER CYBERATTACKS	308
D.D. Omonova	
JAHON SAVDO TASHKILOTIGA A'ZO BO'LISH JARAYONIDA Budget-SOLIQ SIYOSATINI ISLOH QILISH MASALALARI	314
Hojiakbar Zaynabidinov	
SILINDRSIMON KAMERADA QATLAMLI CHIGITLAR AYLANMA HARAKATINING TAHLILI.....	319
No'monov Mirjalol Abdumalik o'g'li	
IPAKCHILIK KLASSTERLARI ASOSIDA TARMOQNI O'RTA MUDDATLI RIVOJLAN TIRISH STRATEGIYASI.....	325
Xudoykulov Mamarasul Radjabovich	
INNOVATSION IQTISODIYOT SHAROITIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH.....	332
Shermatov Sirojiddan Xaydarovich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM IQTISODIYOTINING RAQAMLI MARKETING ORQALI RIVOJLANISH YO'LLARI.....	335
Egamberdiyev Muzaffar	
РОЛЬ ЦИФРОВЫХ РЕШЕНИЙ В РЕАЛИЗАЦИИ ПРОЕКТА «БЕЗОПАСНЫЙ ГОРОД»	339
Иминов Акбаржон Одилжонович	



IQTISODIY TIZIM VA INSON QADRIYATI: KAPITALIZM VA GUMANIZM O'RTASIDA	345
Raxmatullayev Sarvar Nazar o'g'li, Abdukarimova Muborak Sharaf qizi, Madrakhimova R. G.	
O'ZBEKISTONDA QULAY INVESTITSIIYA MUHITINI SHAKLLANTIRISH VA INVESTITSIIYALAR JALB ETISH MEXANIZMLARINI TAKOMILLASHTIRISH	350
Yusupov Muxiddin Soatovich	
KONSOLIDATSIYALASHGAN MOLIVAVIY HISOBOT MA'LUMOTLARINI TAHLIL QILISH MASALALARI	358
Avazov Ilhom Ravshanovich	
YANGI TUZILISHLI IKKI QATLAMLI TRIKOTAJ TO'QIMALARINI OLISH USULLARI	363
S. Saparova, M. Musaeva, M. Mirsadikov, M. Mukimov	
KVANT MUHITIDA AXBOROTNI HIMOYALASHGA XIZMAT QILUVCHI MULTIPLEKSER TUZILMASI	370
Safayev Nuriddin Najmiddin o'g'li	
ERKIN IQTISODIY HUDUDLAR: KO'P QATLAMLI IQTISODIY MEXANIZMLAR, INNOVATSION INFRATUZILMA VA INSTITUSIONAL UYG'UNLIKNING KONSEPTUAL TAHLILI	377
Kuziev Ravshan Ramazonovich	
SANOAT HAMKORLIGINING ILG'OR TAJRIBALARI VA ULARNI O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIGA INTEGRATSIYA QILISH YO'LLARI	385
Boyutrayev Olimjon Urayimovich	
DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK ASOSIDA KICHIK BIZNESNI RIVOJLANTIRISH MASALALARI	392
Akbarov G'ayratjon Ne'madjonovich	
QORAQALPOG'ISTON RESPUBLIKASI QO'NG'IROT TUMANIDA YILQICHILIK VA TUYACHILIKNI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARINI ARIMA MODEL ASOSIDA PROGNOZLASH	396
Sabit Gabbarov Nietali'evich	
MAKTABGACHA TA'LIM MUASSALARIDA AUTSORSING FAOLIYATINI MOLIVALASHTIRISHDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR	402
Xamidov Anis Choriyevich	
NEXUS BETWEEN RENEWABLE ENERGY USE AND GDP GROWTH IN UZBEKISTAN	407
Xalimjonov Nurbek Ulug'bek o'g'li, Toxirov Shodiyor Zafar o'g'li, Jumamuratov Sultanbek Ilyasovich	
MOLIVAVIY SALOHİYATNI OSHIRISHDA XORIJIY INVESTITSIIYALARNI JALB QILISH MEXANIZMINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	415
Akishova Shaxnoza Davlet qizi	
O'ZBEKISTON O'RMON XO'JALIGIDA INNOVASION MOLIVALASHTIRISH: NORMATIV TAYANCH, BOZOR INSTRUMENTLARI VA EKOTIZIM XIZMATLARI	420
Mamatqulova Muxlisaxon Mamirjanovna	
SERVIS IQTISODIYOTIDA ISH BILAN BANDLIK SHAKLLARI TRANSFORMATSIYASINI TADBIQ QILISHGA METODOLOGIK YONDASHUV	425
Abdusaidov Akmal Abduvaliyevich	
O'ZBEKISTON IQTISODIYOTIDA TURIZMNING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI	431
Kuymuratova Matlubaxon Abdimanabovna	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ «ЗЕЛЁНОГО» ФИНАНСИРОВАНИЯ В БАНКОВСКОМ СЕКТОРЕ	436
Мирдовидов Бахтиер Кобилович	
MILLIY IQTISODIYOT UCHUN INVESTITSIIYA RESURSI SIFATIDA UY XO'JALIKLARI JAMG'ARMALARINI RIVOJLANTIRISH	443
Bayxonov Baxodirjon Tursunbayevich	
AXBOROT-KOMMUNIKATSIYA TIZIMLARI HIMOYA VOSITALARINI SUN'IY INTELLEKT BILAN INTEGRATSIYALASH MUAMMOLARI	448
Bozorov Suhrobjon Mumin o'g'li	



SANOAT KORXONALARIDA KPI TIZIMINI JORIY QILISHNI TAKOMILLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI	453
Tursunov Orifali Samandarovich	
IQTISODIY BARQARORLIKGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR VA ULARNING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	457
Abdullayeva Sevaraxon Xasanovna	
ZARAFSHON MINTAQASI HUDUDLARIDA XIZMAT KO'RSATISH SOHALARI O'RTASIDAGI MUTANOSIBLIKNI TA'MINLASH ISTIQBOLLARI	463
Murtazayev Isabek Bazarbayevich	
YUQORI SAMARALI PAXTA TOZALAGICHDA MAYDA IFLOSLIKLARNI AJRATISH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISH VA UNING OPTIMAL PARAMETRLARINI MATEMATIK MODELASHTIRISH ASOSIDA ANIQLASH.....	471
Mirzakarimov Mirsharoffiddin Mirzaabdurahimovich	
MAHSULOTLAR RAQAMLI PASPORTI EKOTIZIMI VA UNI SHAKLLANTIRISH OMILLARI.....	478
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
ВЛИЯНИЕ РАЗЛИЧНЫХ МОЮЩИХ СРЕДСТВ И МЕТОДОВ НА ПОКАЗАТЕЛИ КАЧЕСТВА НАТУРАЛЬНЫХ ШЕРСТЯНЫХ ВОЛОКОН.....	484
Собиров ДаниёрХолмуродович	
СТРУКТУРНАЯ МОДЕЛЬ ЦИФРОВОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ ПЕДАГОГОВ В СОВРЕМЕННОМ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОМ ПРОСТРАНСТВЕ.....	490
Киличева Феруза Бешимовна	
KICHIK BIZNESNING BARQAROR IQTISODIY RIVOJLANISHINI TA'MINLASHDA SAMARALI OMILLARDAN FOYDALANISH NAZARIYASI	495
Imomnazarov Xurshid Ozodbekovich, Zakirova Gulnora Mirzaliyevna	
TIJORAT BANKLARIDA MOLIVAVIY BARQARORLIKNI BAHOLASH INDIKATORLARI VA ULARNI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	499
Abdusalamov Olimjon Eshmirzayevich	
O'ZBEKISTONDA TURIZM SOXASIGA DAVLAT-XUSUSIY SHERIKLIK MEXANIZMINI TA'SIRI.....	504
Yuldashev Kodirjon Mamadjanovich	
O'ZBEKISTONDA DAVLAT BUDJETI XARAJATLARINING SAMARADORLIGINI BAHOLASH METODLARINI TAKOMILLASHTIRISH.....	508
Shernayev Akbar Aqmirzayevich	
O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING TIJORAT BANKLARIDA MUAMMOLI KREDITLARNI KAMAYTIRISH YO'LLARI	514
Adilov Mirkomil Miralimovich	
IDORALARARO INTEGRATSIYANING NAZARIY MODELLARI VA UNING DAVLAT BOSHQARUVIDAGI AHAMIYATI	520
Ashirov Jamolbek Shuxrat o'g'li	
MO'RT MATERIALLARNI MEXANIK KESIB ISHLOV BERISHDA ASBOB YUZASIDA KUZATILADIGAN YEYILISH	526
Allanazarov Akmal Abdulxaqovich, Axmedov Azamat Xaitovich, Shakirov Shuhrat Musayevich	
RAQAMLI IQTISODIYOT SHAROITIDA SOLIQ MONITORING TIZIMINI RIVOJLANTIRISH ISTIQBOLLARI	530
Lukmanov Kahramon Abdurahmanovich	
NODAVLAT OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA MARKETING FAOLIYATI SAMARADORLIGINI OSHIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH BO'YICHA XORIJIY TAJRIBALAR	534
Yuldashov Isomiddin Sidiqovich	
KICHIK BIZNESNI MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASHDA TIJORAT BANKLARINING KREDIT SIYOSATINI TAKOMILLASHTIRISH YO'NALISHLARI	540
Norqobilova Nargiza Abdigodirovna	



PNEVMOTRANSPORT TIZIMIDAGI PNEVMOQUVUR TIRSAK MATERIALINI YAXSHILASH ORQALI PAXTA SIFATIGA TA'SIRINI O'RGANISH	546
Boltabayev Bekzod Egamberdiyevich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARINING EKOLOGIK AKTIVLARINI HISOBGA OLISH	549
Mirzayev Komiljon Abdullajonovich	
DEHQON XO'JALIKLARIDA YER RESURLARIDAN FOYDALANISHNING EKOLOGIK XAVFSIZLIGI VA UNING BAHOLASH USULLARI.....	553
Axmatov Abutolibxon Ochilxon o'g'li	
XUSUSIYLASHTIRILGAN KORXONALARDA KORPORATIV BOSHQARUVNI TAKOMILLASHTIRISH ORQALI MOLIVAVIY NATIJADORLIKNI OSHIRISH YO'LLARI	557
Asomidinova Moxigulbonu Oybek qizi	
O'ZBEKISTONDA INVESTITSION JOZIBADORLIKNING ORTIB BORISHI JAHON MIQYOSIDA JORIY ETILAYOTGAN BUSINESS READY REYTINGIDAGI BAHOLASH NATIJALARIDA YAQQOL NAMOYON BO'LMOQDA.....	562
Platov Dilshod Xaqberdiyevich, Raxmonov Doniyor Ixtiyorjon o'g'li, Ortiqova Niginabonu Alisher qizi, Raxmonov Jo'rabek Hamroyevich	
QISHLOQ XO'JALIGI SOHASIDA INVESTITSIYADAN FOYDALANISH SAMARADORLIGI VA RIVOJLANTIRISH STRATEGIYASI.....	570
Nilufar Mengqobilovna Xudayberdieva	
MAGNEZIAL BOG'LOVCHI MATERIALLAR ISHLAB CHIQRISHDA SANOAT CHIQINDILARNI FOYDALANISHNING DUNYO VA O'ZBEKISTON MIQYOSIDAGI HOLATI	574
Rahimjon Jalilov Ravshanbek o'g'li, Orazimbetova Gulistan Jaksilikovna	
KORXONALAR ISHLAB CHIQRISH POTENSIALINING XUSUSIYATLARI VA UNDAN FOYDALANISH IMKONIYATLARI	578
Jalilov Bahrom Sotiboldievich	
O'ZBEKISTONDA INKLYUZIV SUG'URTA INSTITUTINING RIVOJLANISH ZARURATI VA UNING IJTIMOY-IQTISODIY AHAMIYATI.....	583
Ravshanova Mohinur O'rolovna	
INNOVATIVE APPROACHES TO IMPROVING STUDENTS' DIGITAL COMPETENCE	588
Jalqasbayev Sultanbek Tayrbek uli	
KREATIV TURIZMDA YANGI TAJRIBALAR YARATISH: IJODIY KLASSTERLAR, MAHALLIY HUNARMANDCHILIK VA IMMERSIV TEXNOLOGIYALAR ROLI	593
Hamzayeva Dilfuza Samarovna	
TO'QIMACHILIK SANOATI KORXONALARI EKSPORT SALOHİYATINI BOSHQARISHNING ZARURIYATI VA AHAMIYATI	599
Salimjonova Zilolaxon Salimjon qizi	
O'ZBEKISTONDA "YASHIL" IQTISODIYOTGA O'TISHNI QO'LLAB-QUVVATLASH UCHUN FOYDALANILADIGAN MOLIVAVIY MAHSULOTLAR	605
Nazarova Umida Mamadali qizi	
CREDIT RISK MANAGEMENT AND PROFITABILITY OF COMMERCIAL BANKS IN AN EMERGING MARKET: THE CASE OF UZBEKISTAN	609
Ruzmamat Khudayberganov Shokirjon ugli, Sobirov Yuldoshboy Ruzimboevich, Nodirbek Fayzullaev Baxtiyor Ugli	
PAXTA XOMASHYOSIDAGI IFLOSLIKLARNI TOZALASHDA UNUMDORLIKNI OSHIRISHGA TA'SIR ETUVCHI OPTIMAL PARAMETRLARNI ANIQLOVCHI MATEMATIK MODEL.....	616
Karimov Abdusamat Ismonovich, Imomnazarova Nurjaxon	
ГОСУДАРСТВЕННО-ЧАСТНОЕ ПАРТНЕРСТВО КАК ИНСТРУМЕНТ МОДЕРНИЗАЦИИ СИСТЕМЫ ДОШКОЛЬНОГО И ОБЩЕГО СРЕДНЕГО ОБРАЗОВАНИЯ В УЗБЕКИСТАНЕ	621
Муродбек Болтабоев	



YOSHLAR TADBIRKORLIGINI MOLIYALASHTIRISHDA MAVJUD MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLAR	626
Valiev Umid Gulamovich	
TURIZM SOHASIDA MARKETING STRATEGIYALARINING SAMARADORLIGINI OSHIRISH YO'LLARI	631
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna	
HR MARKETING STRATEGIYALARINING KORXONA SAMARADORLIGIGA TA'SIRI	635
Adilova Zulfiya Djavdatovna	
ISHLAB CHIQARISH KORXONALARIDA MARKETING TADQIQOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI	641
Musayeva Shoirazimovna	



ISHLAB CHIQUARISH KORXONALARIDA MARKETING TADQIQOTLARINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI



Musayeva Shoirazimovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti professori

Email: musaeva_shoira@mail.ru

ORCID: 009-0000-9577-6976

Annotatsiya. Mazkur maqolada marketing tadqiqotlari usullarini kengaytirish, bozor munosabatlarida keng qo'llaniladigan ekspert so'rovlari, fokus guruhlar, panel tadqiqotlar va boshqa usullardan foydalanish, axborotni to'plash va saralash tizimini joriy etish, ya'ni marketing axborotlari monitoringini yurita oladigan tuzilmani shakllantirish hamda iste'molchilarni o'rganishda elektron axborot texnologiyalaridan keng foydalanish masalalari yoritilgan.

Kalit so'zlar: korxona, bozor, takomillashtirish, xaridor, so'rov, kuzatuv, mahsulot, samaradorlik.

Abstract. This article discusses the expansion of marketing research methods, the use of expert surveys, focus groups, panel studies, etc., which are widely used in market relations, the introduction of a system for collecting and sorting information, that is, the formation of a structure capable of monitoring marketing information, and the widespread use of electronic information technologies in consumer research.

Keywords: Enterprise, market, improvement, customer, survey, monitoring, product, efficient.

Аннотация. В статье рассматривается расширение методов маркетинговых исследований, применение экспертных опросов, фокус-групп, панельных исследований и широко применяемых в рыночных отношениях, внедрение системы сбора и обработки информации, то есть формирование структуры, способной осуществлять мониторинг маркетинговой информации, а также широкое применение электронных информационных технологий в исследованиях потребителей.

Ключевые слова: Предприятие, рынок, совершенствование, клиент, опрос, мониторинг, продукт, эффективность.

KIRISH

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keskin choralar dasturi bo'yicha sa'y-harakatlarning yanada kuchaytirilishi, korxonalarga zamonaviy texnologiyalarni keng joriy etish, ishlab chiqarishni mahalliyashtirish jarayonini rivojlantirish, buning uchun investitsiyalar jalb etish doirasini kengaytirish hamda ulardan samarali foydalanish zarurligini ko'rsatmoqda. Shuni ta'kidlash joizki, mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiyashtirish natijasida tashkil etilgan aksiyadorlik jamiyatlarida xalqaro aloqalarning mustahkamlanib borishi samarali faoliyatni ta'minlash uchun marketing imkoniyatlaridan yanada kengroq foydalanishni taqozo etadi.

Aynan raqobatbardosh mahsulot yaratish va uni sotishning zamonaviy usullarini qo'llash, shuningdek, mahsulotning xaridorgirligini ta'minlashda marketingning o'rni beqiyosdir. Shu nuqtayi nazardan, O'zbekiston mebel sanoati korxonalari samaradorligini yanada oshirishda marketing faoliyatidan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etuvchi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Korxonalar faoliyatining rivojlanishi uchun marketing tadqiqotlarini doimiy tarzda samarali tashkil etish va ularni ishlab chiqarish hamda xizmat ko'rsatish jarayonlariga tatbiq etish maqsadga muvofiqdir.

Bu borada mashhur marketolog olim F.Kotlarning “marketing — bu iste’molchilarning muammolarini tushunib yetishga qaratilgan tartiblashtirilgan va maqsadga yo’naltirilgan jarayon hamda bozor faoliyatini boshqarish” degan ta’rifi katta ahamiyatga ega. Iqtisodchi olim F.Kotlarning fikridan kelib chiqib xulosa qiladigan bo’lsak, xo’jalik yurituvchi subyektlar faoliyatida marketingning asosini marketing tadqiqotlari tashkil etadi, deb aytish mumkin.

Ammo hozirgi kunda ko’plab korxonalar marketing tadqiqotlarini faqat bozor va iste’molchilar haqida axborot yig’ish va uni tahlil qilish bilangina cheklab qo’ymasdan, ishlab chiqarish yoki xizmat ko’rsatish jarayonidagi muammolarni ham o’rganishlari va ularning yechimini imkon qadar topishga yo’naltirishlari zarur. Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida “marketing tadqiqoti” tushunchasiga zamonaviy yondashuv sifatida marketing tadqiqotlarini “korxonaning bozorni o’rganish asosida mahsulot ishlab chiqarish va sotish jarayonini boshqarish” deb ta’riflash maqsadga muvofiqdir.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Xorijiy tajribalar asosida shuni ta’kidlash lozimki, marketing tamoyillarini rivojlantirish va ularni amaliyotda qo’llash bo’yicha ko’plab iqtisodchi olimlar izlanish olib borgan. Ular qatoriga F.Kotler, M.Porter, D.Evans, I.Ansoff, M.Berman, M.Golubkov, P.Samuels, D.Marshall kabi taniqli olimlarni kiritish mumkin.

Mamlakatimizda ko’p yillar davomida marketing sohasida olib borilgan ilmiy izlanishlar milliy xususiyatlardan kelib chiqqan holda iqtisodiyotda marketing nazariyasining rivojlanishiga katta hissa qo’shgan olimlarni ham e’tirof etish lozim. Bularga M.Muxammedov, M.Pardaev, R.Ibragimov, Yo.Abdullaev, A.Saliev, M.Sharifxo’jaev, B.Xodiev, D.Raximova, M.Ikramov, Sh.Ergashxo’jaeva, Sh.Musayeva va boshqalarni kiritish mumkin.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Tadqiqot jarayonida tizimli yondashuv, abstrakt-mantiqiy fikrlash, guruhlash, taqqoslash, omilli tahlil va tanlanma kuzatish usullaridan foydalanilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Hozirda barqaror rivojlanish yo’lidan borayotgan korxonalar faoliyatida marketing tadqiqotlarini rivojlantirishda ishlab chiqarilayotgan mahsulot va xizmatlarni amalda sinovdan o’tkazish tartibi mavjud bo’lib, bunda maxsus guruh tashkil qilinadi hamda narx elastikligini tekshirish (price elasticity testing), marketing konsepsiyasini sinovdan o’tkazish (concept testing), tovar markasi nomini sinovdan o’tkazish (brand name testing) va tovar markasi obro’sini sinovdan o’tkazish (brand equity testing) usullaridan foydalaniladi. Ishlab chiqarish bilan shug’ullanayotgan korxonalar uchun maksimal darajada ko’p foyda olishning asosiy sharti ishlab chiqarish jarayonini iste’molchilar va raqobatchilar faoliyatiga moslashtirish hisoblanadi. Raqobat sharoitida har qanday korxonaning ishlab chiqarish va sotish faoliyati marketing tadqiqotidan boshlanishi kerak degan fikrni ilgari suradi.

Ushbu tavsifning isboti sifatida marketing tadqiqotlarining zamonaviy usullari bugungi kunda G’arb davlatlarida ham keng qo’llanilmoqda. Ular o’ziga xos maqsad va vazifalarga ega bo’lib, muammolarga kompleks yondashish imkonini beradi. Ayniqsa, mahsulotni testdan o’tkazish va bu boradagi marketing tadqiqotlari texnikasi murakkab jarayon hisoblanadi, mazkur jarayonni tahlil qilish esa muayyan qiyinchiliklar tug’diradi. Har qanday ishlab chiqaruvchi yoki xizmat ko’rsatuvchi subyekt bunday muammolarni o’rganishda kompleks, ya’ni har tomonlama yondashishi zarur, aks holda to’g’ri yechim topish imkoniyati cheklangan bo’ladi.

O’zbekiston Respublikasi iqtisodiyot tarmoqlari rivojida o’tkazilayotgan marketing tadqiqotlarini takomillashtirishda mahsulotlarni testdan o’tkazish texnikasining sodda usullarini ishlab chiqish va mavjud holatni tahlil qilish metodologiyasini takomillashtirish zarur. Bunda iste’molchi tanloviga faqat e’tibor qaratish bilan cheklanib qolmasdan, raqobatbardosh mahsulotlar ishlab chiqarishga o’tish talab etiladi.

Bugungi kunda iqtisodiyot tarmoqlarida yaratilayotgan mahsulotlarni iste’molchi talabiga moslashtirish, mahsulotlar bozoridagi keskin raqobatni hisobga olgan holda ularni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirda aholiga xizmat ko’rsatish madaniyatining rivojlanib borayotgani, iste’molchilarning daromadlari hamda xohish-istaklarining yildan-yilga o’zgarib borayotgani mazkur bozorda istiqbolli marketing tadqiqotlari konsepsiyasini shakllantirishni talab etadi. Bu esa ishlab chiqaruvchilar o’rtasidagi raqobatning kuchayishiga, xalqaro sifat standartlariga javob beruvchi mahsulotlar ishlab chiqarish imkoniyatlarining kengayishiga, aholining sifatli va tannarxi arzon mahsulotga bo’lgan talabini yanada chuqur o’rganishga, tovar assortimentini kengaytirishga hamda servis darajasini takomillashtirishni kun tartibiga olib chiqmoqda.

Mahsulotlar bozoridagi eng asosiy muammolardan biri — korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotlarning yetarli darajada bozor brendiga yoki o’z obro’siga ega emasligi natijasida talabning



pasayishidir. Bu kabi muammolarning oldini olishning eng oqilona yo'li bozorni o'rganishda eng zamonaviy va takomillashgan marketing tadqiqotlari usullarini amaliyotga joriy etishni taqozo etadi.

Tovar ishlab chiqaruvchi har qanday korxona rahbariyati bozordagi holat, qo'yilgan maqsadlar va bajarilishi lozim bo'lgan vazifalar xarakteri hamda belgilangan strategiyadan kelib chiqqan holda qaysi marketing tadqiqotlarini va qanday ketma-ketlikda o'tkazish, qanday inson hamda moliya resurslarini safarbar qilish, nimalarni o'z kuchi bilan bajarish va qaysi tadqiqotlarni tashqi ijrochilarga topshirish maqsadga muvofiq ekanini hal qilishi zarur bo'ladi. Inson va moliya resurslarini tejash hamda marketing tadqiqotlarida yuqori samaraga erishish uchun ushbu jarayonning istiqboldagi rivojini konseptual jihatdan tasavvur qilish muhimdir.

Murakkab va keng ko'lamli marketing tadqiqotlarini o'tkazishda tadqiqot konsepsiyasini ishlab chiqish, unda muammoni batafsil ochib berish, uni eng samarali usulda hal qilish yo'llari va vositalarini ko'rsatish maqsadga muvofiqdir. Bunday konsepsiya asosida tadqiqot loyahasini va uni o'tkazish usullarini ishlab chiqish, vazifalarni aniqlashtirish, axborotni to'plash, qayta ishlash va tahlil qilish, taklif hamda tavsiyalarni ishlab chiqish imkoniyati yuzaga keladi. Shundan so'ng marketing tadqiqotlarini o'tkazishning turli yo'llari qo'llaniladi.

Axborot to'plash jarayonida odatda marketologlar, statistlar, menejerlar, distribyutorlar va boshqa mutaxassislar ishtirok etadi. To'plangan axborotlardan samarali foydalanish korxonaning belgilangan maqsadlarga erishishini taqozo etadi.

Tanlanma va yoppasiga kuzatuv o'rtasidagi farq shundaki, korxonalar uchun tadqiqotlar va reklama jarayonlari qanchalik arzon mashg'ulotga aylansa, korxona uchun shunchalik foydali bo'ladi. Shu sababli tanlanma kuzatuv usulida bir yoki bir nechta kichik obyekt o'rganilgani tufayli korxona vaqt va ortiqcha xarajatlardan yutadi.

Har qanday ilmiy tadqiqotlarni o'tkazishda ma'lumot olish uchun axborotning ikki manbaidan — birlamchi va ikkilamchi ma'lumotlardan foydalaniladi. Ikkilamchi manbalar — bu avvaldan mavjud bo'lgan, o'rganilishi zarur bo'lgan ma'lumotlardir. Ko'pincha ushbu ma'lumotlar rejalashtirilayotgan tadqiqot yo'nalishidan boshqa maqsadlarda yig'ilgan bo'ladi. Shu sababli ularni yangi ma'lumotlar bilan to'ldirish yoki birlamchi ma'lumotlar yig'ish zarurati tug'iladi. Axborot manbalari o'rtasidagi farq "kabinetli tadqiqot" (desk research) va "kabinetdan tashqaridagi tadqiqot" (field research) tushunchalarining shakllanishiga sabab bo'lgan. Yuqorida ta'kidlanganidek, kabinetli tadqiqot ikkilamchi ma'lumotlarni yig'ish maqsadida, kabinetdan tashqaridagi tadqiqotlardan avval amalga oshiriladi. Chunki zarur axborotlar mavjud bo'lib, ularni tizimlashtirish yoki to'ldirish imkoniyati mavjud. Bundan tashqari bosma manbalar axborot manbai sifatida nisbatan oson olinadi va to'g'ri foydalanilganda vaqt hamda mablag'larni tejash imkonini beradi.

Kabinetli tadqiqotlar firmaning o'z hisobotini o'rganishdan boshlanadi. Hisobotni yuritishga mas'ul bo'limlar javobgar bo'lsa ham, marketing tadqiqotlari bo'limi hisobotlarni unifikatsiyalashning yetarli darajasini ta'minlashi va shu orqali firma uchun axborot bazasini yaratishi lozim. Bunday bazaviy ma'lumotlarni olish mumkin bo'lgan hisobot hujjatlari quyidagi faoliyat yo'nalishlarini qamrab olgan bo'lishi zarur:

Sotib olish (zahira darajasi, undan foydalanish tezligi va boshqalar).

Ishlab chiqarish (ishlab chiqarish miqdori, materiallar, ishchi kuchi, tovar zahiralari tashish va saqlash harakatlari, ularni qayta ishlash, qadoqlash va o'rash, ustama xarajatlar, asbob-uskunalaridan foydalanish va boshqalar).

Kadrlar (ishchi kuchi qiymati, kadrlar qo'nimsizligi, mehnat unumdorligi darajasi, sababsiz ish qoldirishlar).

Marketing (sotishni rag'batlantirish xarajatlari, ma'muriy xarajatlar, alohida bozor va tovar markalari bo'yicha ma'lumotlar va boshqalar).

Sotish (alohida tovarlar bo'yicha qiymati, foyda ulushi, buyurtmalar hajmi, sotish kanallari turlari yoki xaridorlar, sotish hududlari yoki agentlar bo'yicha).

Moliya (balans hisobotidagi ma'lumotlar).

Tadqiqotchi firmaning yuqorida sanab o'tilgan ichki materiallaridan tashqari, katta miqdordagi qo'shimcha axborot manbalaridan ham foydalanadi. Ularni besh asosiy toifaga ajratish mumkin: hukumat mahkamalari materiallari (mahalliy va xorijiy), universitet va notijorat tadqiqot tashkilotlarining nashrlari, savdo va sanoat assotsiatsiyalari nashrlari, akademik, kasbiy va tijorat oynomalari, tijorat tadqiqot tashkilotlarining ma'ruzalari.

Bosma materiallardan axborot manbai sifatida foydalanganda, ularni yig'ish va tizimlashtirishda qanday usul qo'llanganini aniqlash muhimdir. Agar usullar mos kelmasa, ularni bevosita solishtirma tahlil qilish mumkin emas. Bundan tashqari, bu ma'lumotlarning ishonchililigiga tadqiqotchi to'liq ishonch hosil qilganidan keyingina foydalanish lozim. Barcha bosma axborot manbalari ko'rib chiqilgandan so'ng ham asosiy muammo yechimi topilmasa, u holda kabinetdan tashqarida o'tkaziladigan tadqiqotlar zarur bo'ladi.

Bunday sohalar quyidagilardan iborat:

- reklamani tadqiq qilish (reklama e'lonlari samaradorligini tahlil qilish, reklamani tarqatish vositalarini o'rganish, ommaviy axborot kanallaridan foydalanishni tahlil qilish, iste'mol auditoriyasi hajmini aniqlash);
- iste'molchilarni o'rganish (iste'molchining tanlovini va unga ta'sir etuvchi omillarni tadqiq qilish);

– taqsimot turlari (setlari) samaradorligini tahlil qilish (taqsimotning muqobil tarkiblarini qiyoslash, yukni qayta ishlash usullari va boshqalar);

– iste'mol xususiyatlarini tadqiq qilish (yangi mahsulot g'oyasini tahlil qilish, mahsulotni iste'molchini jalb qilgan holda sinash, mumkin bo'lgan iste'mol toifalarini aniqlash va boshqalar).

Birlamchi ma'lumotlarni quyidagi uch usuldan biri yordamida yig'ish mumkin: kuzatish, eksperiment va tanlanma tadqiqot, shuningdek ularni birgalikda qo'llash orqali. Kuzatish eng oddiy usul bo'lib, ko'pchilik holatda qoniqarli natijalar beradi. Bu usulning mohiyati o'rganilayotgan omillar bilan bog'liq jarayonlarni kuzatishdan iborat. Masalan, savdo binolarini rejalashtirishda asosiy usullardan biri do'konga kiruvchi xaridorlar oqimini o'lchashdir.

Kuzatish texnikasi kuzatuvchining o'z ishini qanchalik puxta bilishi va jarayonlarga qanchalik haqqoniy yondashishiga bog'liq. Bu usulning cheklanishi uning yashirin xarakteridadir, chunki kuzatish xaridorlar ongida aks ta'sir uyg'otmasligi kerak. Bundan tashqari, tashqi ko'rinish ko'p hollarda xaridorlarning ichki motivlarini ochib bermaydi.

“GULOBOD MEDEL” MCHJda so'nggi uch yilda 9 ta ratsionalizatorlik taklifi berilgan. Xususan, turli shakldagi mebellar tayyorlash bo'yicha takliflar ilgari surilgan. Korxonada ushbu mahsulotlarni ishlab chiqarish yo'lga qo'yilishi natijasida har yili 950–1 050 mln so'mgacha sof foyda olinmoqda. Shu davrda iqtisodiy samaradorlik o'rtacha 75 foizni tashkil etgan.

Jamiyat bir necha yildan beri oliy va o'rta maxsus ta'lim muassasalari hamda korxona va tashkilotlarni mebel bilan ta'minlash bo'yicha tashkil etilgan tender savdolarida faol ishtirok etib kelmoqda. Keyingi yillarda korxonada sezilarli ijobiy o'zgarishlar kuzatilib, natijada oxirgi uch yilda 16 ta yangi ish o'rni yaratilgan.

Jamiyat tomonidan 2022-yilda aholiga, korxona va tashkilotlarga turli xil mebellar ishlab chiqarish yo'lga qo'yilgan. Ushbu jihozlarni yanada sifatli va zamon talablariga mos ishlab chiqarish uchun F.Raxmatov tashabbusi bilan 2024-yilda 78 ming AQSH dollarlik Sloveniya davlatidan, 2024-yilda 136 ming AQSH dollarlik Xitoy davlatidan, 2024-yilda 14 ming AQSH dollarlik Turkiya davlatidan, 2025-yilda 220,3 ming yevrolik Germaniya davlatidan, 2024-yilda 68,8 ming AQSH dollarlik hamda 34,0 yevrolik Germaniya davlatidan zamonaviy uskunalar xarid qilingan.

Shuningdek, korxonada 1 mlrd 800 mln so'mlik yangi ishlab chiqarish binolari qurilgan. 2022-yilda 7 mlrd 708,2 mln so'mlik mahsulot, 2023-yilda 10 mlrd 565,7 mln so'mlik mahsulot va 2024-yilda 17 mlrd 855,1 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarilib, sotilgan. Jami uch yilda 35 mlrd 904,5 mln so'mlik mahsulot ishlab chiqarilgan bo'lib, olingan sof foyda 9 mlrd 284,1 mln so'mni tashkil qilgan (1-jadval).

1-jadval. Samarqand tumani “GULOBOD MEDEL” mas'uliyati cheklangan jamiyatining 2022-2024-yillardagi asosiy ko'rsatkichlari¹

№	Ko'rsatkilari	2022y.	2023y.	O'sish, %	2024 y.	O'sish, %
1	Korxonaning rejasi	6 000,0	8 300,0	138%	14 000,0	169%
2	Amalda bajarilishi	7 483,7	10 565,7	141%	17 855,1	169%
3	Foiz hisobida	125%	127%		128%	
4	Ishlab chiqarilgan mahsulotlar (komplekt)	15 745	20 717	132%	28 450	137%
4	Olingan daromad (mln. so'm)	2 266,4	3 083,0	136%	5 270,3	171%
5	Olingan sof foyda (mln. so'm)	1 925,2	2 551,3	133%	4 807,6	188%
6	Ish haqi (mln.sum)	522,2	695,8	133%	873,9	126%

2022-yilda O'zbekiston Respublikasi Prezidenti sovrini uchun o'tkazilgan “Tashabbus–2022” ko'rik-tanlovining viloyat bosqichida “Eng yaxshi tadbirkor” yo'nalishida 2-o'rinni egallagan. 2022-yil va 2024-yillarda viloyatda “Eng namunali soliq to'lovchi” sifatida e'tirof etilib, Respublika soliq qo'mitasi hamda viloyat soliq boshqarmasining faxriy yorliqlari bilan taqdirlangan.

Korxonada o'tgan uch yil davomida Samarqand tumani kasb-hunar kollejlari ta'lim olayotgan 20 dan ortiq o'quvchi o'quv va bitiruv amaliyotlarini o'tagan. Ulardan 7 nafari ishga qabul qilingan. 2022–2024-yillarda korxona tomonidan 125 mln so'mlik homiylik ishlari amalga oshirilgan. Ushbu mablag' asosan viloyatda

1 Muallif ishlanmasi



futbolni rivojlantirish jamg'armasi, ko'zi ojizlar jamiyati, saxovat va mehribonlik uylari hamda hududdagi kam ta'minlangan oilalarga moddiy yordam sifatida sarflangan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda, olib borilgan izlanishlar natijasida korxonada marketing tadqiqotlarini rivojlantirish bo'yicha quyidagi takliflar ishlab chiqildi:

- marketing tadqiqotlari usullarini kengaytirish, ya'ni bozor munosabatlarida keng qo'llaniladigan ekspert so'rovlari, fokus guruhlar, panel tadqiqotlari va boshqa usullardan foydalanish;
- marketing tadqiqotlarida axborotni to'plash va saralash tizimini joriy etish, ya'ni marketing axborotlari monitoringini yuritishga qodir tuzilmani shakllantirish;
- marketing tadqiqotlarida ikkilamchi axborotlardan keng foydalanish, boshqalarning tadqiqot natijalarini o'rganish;
- iste'molchilarni o'rganishda elektron axborot texnologiyalaridan keng foydalanish.

Ushbu takliflarning samarasi nafaqat sotish hajmida, balki korxonaning umumiy nufuzida ham o'z ifodasini topadi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Gary Armstrong. Philip Kotler. Michael Marker. Marketing in introduction. England, 2016, paperback: 720 pages, Pearson.
2. Philip Kotler. Kavin Lane Ketler. Marketing Management. Pearson Education, Inc. publishing as Prestige Hall, USA, 2012y.
3. Kotler F., Armstrong G., Vong V., Sonders Dj. Основы маркетинга, 5-е европейское изд. Учебник. – М.: ООО "И.Д.Вильямс, 2013. – 752 с.
4. Ergashxodjaeva SH.J., Qosimova M.S., YUsupov M.A. Marketing. Darslik. – T.: TDIU, 2011. – 202 b.
5. Musaeva Sh.A. Marketing tadqiqotlari. Darslik "STAR-SEL" MChJ nashriyot va ijodiy bo'limi. Samarqand-2023
6. Musaeva Sh.A. Integrallashtirilgan marketing kommunikatsiyasi O'quv qo'llanma "Mahorat" nashriyoti, Samarqand – 2022

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2025. № 11

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100